

Pirmuhammadxon I



Pirmuhammadxon I Pirmuhammadxon ibn Jonibek sulton

(?-1567-y. 12-mart)

(1556-1561)

Balx hokimi (1546-67). **Shayboniylar** xoni. Uning davrida Balx hokimligi kuchayib to'liq mustaqil xonlikka aylangan. Buxoro xoni **Abdulaziz** (1540-50) Balxning mustaqilligini barham berish maqsadida katta harbiy yurishga o'tlangan, biroq bu safar unig vafoti tufayli qoldirilgan. Buxoro taxtiga Muhammadyor sulton o'tqazilgan. Pirmuhammad ta'ziya bildirish uchun Buxoroga kelib, turli nayranglar bilan taxtni egallab olgan(1550-y. 18-avgust). Biroq amaldorlar va ulamolarning aksariyati uni qo'llab quvatlamagan. Jo'ybor xojalaridan Xija Muhammad Islom ham uni tan olmagan. Pirmuhammadxon shundan so'ng Buxoro taxtiga o'z kishisi – shayboniylardan Umarg'ozni Sulton(O'zbekxon)ni o'tqazishga ko'p uringan. U Buxoro oily hukmdori sifatida bir yilcha turgan, lekin amirlar va eshon Xoja Muhammad Sultondan ko'mak ololmagach, Buxoroni tark etishga, taxtni yana Muhammadyor Sultonga qaytarishga majbur bo'lgan. Movarounnahrda ichki nizolar kuchaygan davrda (1551-56-y.) Pirmuhammad jiyani Abdullaxonni (*Abdullaxon II*) Navro'z Ahmadxonga qarshi kurashini quvvatlab turgan. Navro'z Ahmadxonning o'limidan foydalangan Abdullaxon Buxoroni egallagan.Pirmuhammad nomiga xutba o'qilgan. Pirmuhammadxon 1561 yil 18-aprelgacha shayboniylarning oliy xoni bo'lib qolgan, garchi uning nomiga xutba o'qilgan va tanga pullar zarb qilingan bo'lsada, u faqat nomiga xon edi. Badaxshon va Balxdagi notinchliklar tufayli Pirmuhammad Balxni tark etib, Buxoroga kela olmasdi. Shuning uchun 1557 yildan amalda Abdullaxon hukmronlik qilgan. Badaxshon hokimi temuriy Sulaymonshox 1560-y. iyul-avgustda Balxga yurish qilganda Pirmuhammadxon Abdullaxon Ildan yordam so'ragan. *Chashmai koziron degan* joydagi jangda

shayboniylar g'alaba qozongan. Bundan ruhlangan Pirmuhammadxon Toxaristondagi Qunduz va Toliqon shaharlarini egallash maqsadida 1560 yil 5-sentabr oyida yurish qilgan. 1561 yilda Pirmuhammadxon bilan Abdullaxon II o'rtasida ixtilof yuzaga kelgan, bunga sabab Pirmuhammadxonning Buxoroni Abdullaxon Ildan tortib olib, evaziga Balxni bermoqchi ekanligi bo'lgan. Biroq bunga Pirmuhammadxonning o'g'li Dinmuhammad sulton norozi bo'lib, otasiga qarshi isyon ko'targan. Xoja Muhammad Islom ham bunga qarshi chiqqan. Abdullaxon II Karmanadan otasi Iskandarxonni keltirib taxtga o'tqazgan(1561 yil may) va Pirmuhammad nomini xutbadab chiqarib tashlagan.

Pirmuhammadxon faol ichki va Tashqi siyosat yurgizgan. Uning davrida Balx xonligi Abivard, Marv viloyati va Termiz hisobga kengaygan. Janubdagi Gurzuvon va Garchiston viloyatlari chegaralari mustahkamlangan.

2023-10-31 23:09:12